


Qish

Qishda kunlar qisqaroq, tunlar uzunroq bo'ladi. Sovuq tushib, daryo va ko'llar muzlaydi.



Qaysi rasmida qish tasvirlangan? Nimalarga qarab qish ekanini bildingiz?




Ayoz bobo novvot sotdi,
Olgan edim, qo'lim qotdi.

(зн)

Yozib kumush poyandoz,
Sovuqda elar shakar.
Sharbatsiz yasar novvot,
Toping siz bermay shahar.

(юо)



Qishda ajoyib tabiat hodisalarini ko'rish mumkin.

Qor – suv tomchilarining yaxlagan holatidir. Suv bug'i osmonda sovuq havo ta'sirida muzlaydi va mayda muz parchalariga aylanadi. Keyin esa muz parchalari yerga tushadi. Bu hodisa **qor yog'ishi** deyiladi. Kam qor yog'ganda, yer yuzasi **yupqa qor** qatlami bilan qoplanadi.

Agar qor kun iliq bo'lib turganda yog'sa, yerga tushib eriydi. Lekin kechasi sovuq havoda muzlaydi. Bu holat yer ustida **yaxmalak** hosil qiladi.



Qor yog'ishi

Qor ko'chkisi

Yupqa qor



Bo'ron



Yaxmalak

Kuchli shamol esib, qor yog'sa, **bo'ron** deyiladi. Ba'zan bo'ron shunaqa kuchli bo'ladiki, yer ham, osmon ham ko'rinxay qoladi. **Izg'irin shamol** qorni yer yuzida uchirib yuradi.



Ikkita bir xil qor parchasini toping.

